DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojhpl-06-09-48 **Pages: 454-460**

Oriental Journal of History, Politics and Law

SUPPORT SCIENCE

ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl



CHANGES IN THE SPIRITUAL AND CULTURAL LIFE OF THE YOUTH OF ANDIJAN

Rashidakhon Davronova
Independent Researcher
Andijan State University
Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: youth policy, spirituality, culture, Andijan region, youth activity, education, social development.

Received: 21.09.26
Accepted: 22.09.26
Published: 23.09.26

Abstract: This article analyzes the changes in the spiritual and cultural life of youth in the Andijan region. The research focuses on the role of state youth policy, the education system, mass media, and cultural institutions in shaping the spiritual values of young people. The study also examines the social activity of youth, their participation in cultural events, and their attitude toward national traditions. The results show that the spiritual outlook and cultural engagement of young people in the region have significantly developed in recent years.

ANDIJON YOSHLARINING MA’NAVIY-MADANIY HAYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR

Rashidaxon Davronova
Andijon davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi
Andijon, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: yoshlar siyosati, ma’naviyat, madaniyat, Andijon viloyati, yoshlar faolligi, ta’lim, ijtimoiy rivojlanish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyati yoshlarining ma’naviy-madaniy hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida yoshlar siyosati, ta’lim muassasalari faoliyati, madaniy markazlar va ommaviy axborot vositalarining yoshlar ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rni o‘rganildi. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faolligi, madaniy tadbirlardagi ishtiroki va milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati tahlil

qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Andijon viloyatida yoshlarning ma’naviy dunyoqarashi va madaniy faolligi so‘nggi yillarda yaxshi natijalarga erishmoqda.

ИЗМЕНЕНИЯ В ДУХОВНОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ АНДИЖАНА

Рашидахон Давронова
Независимый исследователь
Андижанский государственный университет
Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: молодежная политика, духовность, культура, Андижанская область, молодежная активность, образование, социальное развитие.

Аннотация: В данной статье анализируются изменения духовно-культурной жизни молодежи Андижанской области. Рассматривается роль государственной молодежной политики, системы образования, средств массовой информации и культурных учреждений в формировании духовных ценностей молодежи. В исследовании также анализируется социальная активность молодежи, их участие в культурных мероприятиях и отношение к национальным традициям. Результаты исследования показывают, что духовное и культурное развитие молодежи региона в последние годы значительно усилилось.

Kirish. Vatanimiz mustaqilligi tobora mustaxkamlanib, O‘zbekistonimiz kundan –kunga gullab-yashnamoqda. Jahon hamjamiyati orasidagi nufuzi, shon-shuhrati ortib yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratildi. Kishilarimizning fikrlashi, dunyoga, xayotga qarashi o‘zgardi. Yoshlar ongida milliy mafkura, milliy o‘zlikni anglash milliy qadiryatlarimizni tiklash va ularni yoshlarga targ‘ib qilish jarayoni o‘zining yaxshi natijasini berishni boshladi. Qalblarda vatanparvarlik, g‘urur va faxr tuyg‘ulari mustahkamlanib o‘sib kelayotgan yoshlardan umidimiz kattaligini his qila boshladilar.

Birinchi prezidentimiz “Barkamol avlod-millatimiz kelajagi” nomli ma’ruzasida ham Bolalarimizni ozod, kelajagi buyuk Vatanning munosib fuqarolari etib tarbiyalashda maktab, bog‘chaning-xalq ta’limining o‘rni, xizmati beqiyosdir.[6,3,4]bu orqali farzandlarimizni o‘qishiga e‘tiborli bo‘lishiga ularni ilm-fanga qiziqtirish, yurt kelajagi uchun kerakli kadrlar bo‘lishlari uchun ham 1997- yil Prezident sovg‘alari butun respublika bo‘ylab yuborildi. Bu orqali

mamlakatimiz bolalari birinchi marta prezident sovg‘alarini o‘z qo‘llari bilan qabul qilganlar ularning ko‘zlaridagi quvonlarni ko‘pchilik insonlarni xotirasida qoldi. Bu orqali yoshlarni o‘qish uchun imkoniyatlar eshigi ochilganligini ko‘rishimiz mumkin edi. Jamiyat taraqqiyotida yoshlarning o‘rni va ro‘llari mustahkamli nihoyatda muhimdir. Har bir davlat o‘z kelajagini yosh avlod bilan bog‘laydi. Shu sababli yoshlarning ma’naviy, madaniy va intellektual rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham yoshlar siyosatiga alohida e’tibor qaratib, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Respublikamiz o‘z mustaqilligiga erishgach, ta’lim bo‘yicha xalqaro hamkorlik uchun ham keng yo‘l ochildi. Bugungi kunda Xalq ta’limi vazirligi AQSh, Angilya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Gollandiya, Turkiya, Koreya, Shvetsariya va boshqa davlatlar bilan, shuningdek AQSh tinchlik Korpusi hamda ta’lim va til o‘rganish AKCELC tashkiloti, Germaniyaning Gyote instituti hamda YUNESKO, YUNISEF, BMT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning mamlakatimizdagi elchixonalari va ko‘plab nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilmoqda.[7,17] Eng asosiysi mustaqilligimizning dastlabki yillarida ham ko‘plab ilm egalarini chet elga malaka oshirishga yubordilar malakasini oshirish natijasida biz ko‘plab yangilikllar bilan tanishdik va farzandlarimizga bilim berishda yaxshi natijalarga erishganligimiz ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga keng imkoniyat yaratdi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, O‘zbekiston tom ma’noda yoshlar mamlakati hisoblanadi. Chunki respublikamiz aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qiladi. Bu – juda katta imkoniyat va salohiyat degani[1.229]. Andijon azalda o‘zining boy tarixi, adabiy muhiti (Zahriddin Muhammad Bobur, Abdulhamid Cho‘lpon va b.) hamda hunarmandchilik an’analari bilan ajralib turadi. Hozirgi davrda ushbu tarixiy-madaniy meros moderinizatsiya jarayonlari bilan uyg‘unlashgan holda yoshlar hayotiga singdirilmoqda deb o‘zining Andijon yoshlarining ma’naviy-madaniy hayotidagi o‘zgarishlar: Ijtimoiy-Falsafiy tahlil maqolasida, bu maqolada viloyatimiz yoshlariga bo‘lgan e’tibor va etiroflar tahlil qilingan. O’tgan davrda ijtimoiy hayotda yoshlarga xaqiqiy tayanch va suyanch bo’ladigan, “Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati” va uning turli bog’indagi tuzilmalari, “Sog’lom avlod uchun” xalqaro xayriya jamg’armasi, Zulfiya nomidagi, “Nihol” kabi mukofatlar joriy qilindi va yoshlarimiz o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha davlat mukofatlariga erishganligini ko‘rishimiz mumkin. Andijon viloyatiga yurtboshimiz tashrifi viloyatimiz barcha sohalarda rivojlanishi uchun yana turtki bo’lishi berilgan vazifalarni, tavsiyalardan xulosa chiqarishga yoshlarimizni rivojlanishiga olib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Andijon viloyati tarixan boy madaniy merosga ega hududlardan biri hisoblanadi. Andijon viloyatida o’tgan yili 4000 dan ziyod

yangi tadbirkor ish boshladi, 51 ta korxona kichikdan o’rta toifaga o’tdi, 13 tasi yiriklashdi. Bir yilda 450 ming kishi ishli bo’ldi.Viloyatda 1,5 million kvadrat metr turar joy va 850 ming kvadrat metr noturar obyektlar qad ko’tardi. Buning hisobiga o’tgan yili savdo va xizmatlar 13 foiz, sanoat 7,5 foiz oshdi[3.3]. Bu hududda yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy hayoti hamda madaniy faoliyatida so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanish ishlari amalga oshirildi. Turli madaniy tadbirlar, ilmiy konferensiyalar, ijodiy tanlovlar va yoshlar forumlari yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini kengaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Yoshlarimizning liderlik qobilyatini kuchaytirish, faolligini oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirish uchun “Kamalak yulduzlari”, Yilning eng Faol yoshlar yetakchisi”, “Yil sardori”, “Yosh kitobxon” kabi ko‘rik-tanlovlar muntazam o‘tkazib boriladi. Quvonarlisi, keying yillarda Vatanimiz ravnaqiga munosib xissa qo‘shib kelayotgan ana shunday qalbi qaynoq yoshlarning 758 nafari davlat mukofatlariga sazavor bo‘lishdi. Jumladan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘zining faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan 143 nafar yoshlar “Mard o‘g‘lon” davlat mukofati bilan 105 nafar esa “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlanganligi haqida ko‘plab gazeta jurnallardagi maqolalar orqali ham bilib olish mumkin bularning ichida bizning anjon yoshlari ham bor. 2021 yil bahor oyida Mehrinoz Komilova Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Yosh olimamiz o‘zining “ Xomilador ayollarda COVID-19 etiologiyali pnevmoniya rivojlanishining klinik va molekulyar-genetik asoslari” mavzusida[5,1] ilmiy ishi ko‘plab, olimlarda katta qiziqish uyg‘otganligi ko‘rishimiz mumkin. Andijon viloyatining yoshlarining yutug‘larini ko‘rib yaratilgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanayotganligidan dalolat beradi. Dilnavoz 2023 yilgi “yosh kitobxon” tanlovining respublika bosqichida 3-o‘rinni egalladi. Bundan tashqari “Kitobxon yoshlar ligasi”ning 3-mavsumida g‘olib bo‘ldi. Ma’rifat maydoni” jamoaviy tanlovida universitet jamoasi bilan birga respublika bosqichida faollik ko‘rsatdi.[5,3] . haqiqatdan ham mamlakatimiz yoshlariga ko‘rsatilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlik ularni yanada faol harakat qilish va oldiga katta maqsad qo‘yishga undamoqda. Andijon yoshlari haqida gap ketganda o‘zining tirishqoqligi bilan boshqa yoshlardan ajralib turadi Dilnavoz Xaytaxmatova yoshligidan kitob o‘qishga qiziqanligi dadasi o‘qituvchi bo‘lanligi doimo kech o‘qigan kitoblarini so‘zlab berishi oiladagilarni ham kitob o‘qishga qiziqtirib qo‘yganligi suhbatimiz jarayonida aytib o‘tdilar. Uyimda o‘zimning shaxsiy kutubxonam bor doimo o‘qigan kitoblarimni kitob javoniga o‘zim joylashtiraman. Birinchi marta “Yosh kitobxon” tanloviga qatnashganimda esimda yurtimiz bo‘ylab ko‘plab do‘st ortirdim ular bilan suhbatlashish jarayonida ko‘plab kitoblar haqida ma‘lumotlarga va yangi bilimlarga ega bo‘lardim. 2021 yil 15-19 yosh toifasida 3-o‘rinni egallab 30mlnga ega bo‘lgandim men udalladim deya dadamga qaraganlarim eng shirin xotiraga aylandi. Xozirda uyimizga kitob so‘rab

keladigonlar soni anchagina kitob berar ekanman unga albbatta oxiriga qadar o‘qing o‘zingizga katta xulosa chiqarib olasiz deya tavsiya ham berib qo‘yaman. 2024 yilga kelib davlatimiz rahbari tomonidan “Kelajak bunyodkori “medali bilan taqdirlandi. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga ko‘rsatilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlik yoshlarni yanada faol bo‘lishga yangi marralarni egallashga undaydi bu fikrlarni bildirgan Dilnavozni ko‘zlari quvonchdan porlardi.Darhaqiqat, bugun hoh madaniyat va ma’naviyat sohasi bo‘lsin yoki sport yo‘nalishi bo‘lsin, barchasida yoshlarimiz uchun imkon eshiklari ochiq.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ilmiy tahlil, qiyosiy o‘rganish, kuzatuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, mahalliy gazeta va jurnallar hamda ta’lim muassasalari faoliyati bilan bog‘liq materiallar tahlil qilindi. Andijon viloyatidagi yboshlar tashkilotlari, madaniyat markazlari va oliy ta’lim muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy faoliyati o‘rganildi. Bu ma’lumotlar yoshlarning ma’naviy hayotidagi o‘zgarishlarni aniqlashga yordam beradi. Yoshlar ma’naviy hayotini rivojlantirishda davlat siyosatining roli katta hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda yoshlarning ma’naviy va madaniy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Davlat tomonidan yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning madaniy saviyasini oshirish hamda iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning fikricha, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir [2,3]. Andijon viloyatida ham yoshlar bilan ishlash tizimi takomillashtirilib, turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Bu tadbirlar yoshlarning vatanparvarlik ruhini mustahkamlash hamda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim muassasalarining yoshlar ma’naviyatidagi o‘rni

Ta’lim muassasalari yoshlarning ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Maktablar, tehnikumlar va oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning bilim olishi bilan birga ularning ma’naviy tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Andijon davlat universitetida o‘tkazilayotgan ilmiy konferensiyalar, seminarlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar yoshlar bilan uchrashuvlar, yoshlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, yoshlarning ilmiy va madaniy faoliyati jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ta’lim muassasalarida kitobxonlikni rivojlantirish, milliy adabiyot va tarixni o‘rganishga qaratilgan tadbirlar yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitadi. Ko‘p kitob o‘qigan yoshlar o‘rtasida bellashuvlar o‘tkazilishi g‘olib bo‘lgan talabalar moddiy rag‘batlantirilayotganligi ularni bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishga sabab bo‘lmoqda. Andijon yoshlari nomli gazeta chiqariladi, ommaviy axborot vositalari yoshlar

ma’naviyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Gazeta va jurnallarda yoshlarning yutuqlari, ijodiy ishlari hamda ijtimoiy tashabbuslari haqida maqolalar chop etilishi ularning jamiyatdagi faolligini oshiradi. Shuning uchun ham ADU o‘zining gazetasida yosh talabalarining yutug‘lari bilan bir qatorda professor ustozlarining erishgan ilmiy ishlari haqida ma’lumot ham olish mumkin. Mahalliy matbuot yoshlarni ilm-fan, san’at va madaniyatga qiziqtirishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim omillardan biridir. Ahamyatlisi harakatlar strategiyasi 2017-2021 yillar davomida aholining muhtoj qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy xayotidagi maqomini oshirish, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta’lim muassasalarining qulayligini ta‘minlash, umumiy o‘rta maxsus va oliy ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora- tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, hududlarini har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha qarib 25 mingta investisiya loyihasini ro‘yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o‘rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta‘minlash dasturlarini to‘liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo‘lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o‘rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta‘lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchiga kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda[4,35] So‘nggi yillarda Andijon yoshlarining madaniy hayotdagi ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Turli festival, tanlov va madaniy tadbirlar yoshlarning ijodiy salohiyatini namoyon etish imkonini bermoqda. Yoshlarning teatr, musiqa, adabiyot va tasviriy san’atga qiziqishi ortib borayotgani ham hudud madaniy hayotining rivojlanayotganidan dalolat beradi. Bu jarayon yoshlarning ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, Qo‘rg‘ontepa tumaning 2-sektor (Qorasuv shahri hamda Sultonobod shaharchasi) da yoshlar bandligi taxlil etiladigan bo‘lsa, 10259ta xojalikdagi15053 ta oilada 61255 nafar aholi bo‘lib ularning 11328 nafarini 18-30 yoshlilar tashkil etmoqda. 1289 nafar, 2-sektor hududida esa 401 nafar bandligi ta’minlanmagan yoshlar ro‘yhati shaklantirilib, “Yoshlar daftari” ga kiritildi[6,2] Dastlabki harakatlar jarayonida 172 nafar ishsiz yoshlarning 61 nafari doimiy ishga 7 nafari yangi loyihalar tashkil etish va korxonalar faoliyatini tiklash hisobiga, 10 nafari vaqtinchalik jamoat ishlariga 35 nafar yoshga 875mln so‘m kredit ajratildi issiqxonalar tashkil etishga va tadbirkor va hunarmandlarga biriktirilgan yoshlarga o‘zlarining tajribalari va faoliyatlarini o‘rgatib kelmoqdalar.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Andijon viloyati yoshlarining ma’naviy-madaniy hayotida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Davlat siyosati, ta’lim tizimi, madaniy muassasalar va ommaviy axborot vositalari bu jarayonlarni chiroyli yoritilgan. Yoshlarning madaniy tadbirlardagi ishtiroki ortib borayotgani, kitobxonlik madaniyatining rivojlanayotgani hamda ijtimoiy tashabbuslarning kengayib borishi ularning ma’naviy salohiyati oshayotganidan

dalolat beradi. Viloyatimiz aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshib borishi, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizmini takomillashtirish arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommuninikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab, maqsadli dasturlarni amalga oshirish ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish va mustahkamlash ishlari olib borilmoqda.

Kelgusida yoshlarning ma’naviy-madaniy rivojlanishini yanada qo‘llab-quvvatlash, madaniy loyihalarni kengaytirish va ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. XOZIRGI ZAMON va YANGI O‘ZBEKISTON “O‘zbekiston “ – Toshkent- 2024.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, 2017.

3.YANGI O’ZBEKISTON N-78 2025 YIL 17 aprel 3 -bet

4.Harakatlar strategiyasi 2017-2021 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini Yanada Rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni Toshkent “Adolat” 2018

5. Andijonnoma gazetasi. – 2025- yil,1-mart,

6. Qorasuv Tongi 2021-yil, 26-iyun 2-bet

7.J.G‘.Yuldashev Ta’lim Yangilanish Yo‘lida Toshkent “O‘qituvchi” 2000

8.Aliyev Valijon Karimovich Andijon yoshlarining ma‘naviy-madaniy hayotidagi o‘zgarishlar :Ijtimoiy-falsafiy tahlil.